

**Toshkent shahar adliya boshqarmasi
hay'at majlisining
BAYONI**

2023-yil 31-yanvar

1/23-son

Toshkent shahri

- Raislik qildi:** – R. Xamidov – boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari
- Hay'at a'zolari:** – A. Omonov – boshqarma boshlig'i o'rinbosari
B. Axmedov – boshqarma boshlig'i o'rinbosari
J. Xudoyorov, A. Muxamedbayev – hay'at a'zolari
- Qatnashdilar:** Toshkent shahar adliya boshqarmasi tarkibiy bo'linma rahbarlari va mas'ul xodimlari.
- Hay'at kotibi:** X.Hakimov

K U N T A R T I B I:

1. Toshkent shahar adliya boshqarmasi va uning tizimidagi tuman adliya bo'limlarining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida.

(R.Xamidov, A.Omonov, B.Axmedov, J.Xudoyorov, A.Muxamedbayev)

Majlisning borishi

Kun tartibidagi masala hay'at majlisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bunga ko'ra, Toshkent shahar adliya boshqarmasi va uning tizimidagi tuman adliya bo'limlarining 2023-yil I va II-choraklarga (I-yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan vazifalarning muddatida ijro eta olishligini, shuningdek, ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar. Ushbu masala muhokama etilib, Hay'at,

QAROR QILADI:

1. Toshkent shahar adliya boshqarmasi va uning tizimidagi tuman adliya bo'limlarining 2023-yil I va II-choraklarga (*I-yarim yillikka*) mo'ljallangan ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari hamda Rejalashtirish va samaradorlikni baholash bo'limi boshlig'i (J.Xudoyorov) zimmlariga yuklansin.

**Hay'at raisi,
boshqarma boshlig'ining
birinchi o'rinbosari**




R. Xamidov

Hay'at a'zolari:



A. Omonov



B. Axmedov



J. Xudoyorov



A. Muxamedbayev

Hay'at yig'ilishi kotibi:



X. Hakimov